

HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOYIY PROFILAKTIKASINING HUQUQIY, INSONPARVARLIK, TIZIMLI, DIFFERENSIALLASHGAN ISHONTIRISH TAMOYILLARINING SOTSIOMADANIY TAHLILI

Tolipov A.A. -

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligu universiteti,

kafedra boshlig'i sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasining huquqiy, insonparvarlik, tizimli, differensiallashgan ishontirish tamoyillarini ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi kontekstida sotsiomadaniy tahlil etish, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar tafakkur doirasida kompleks yondashuvni zarur qiladi. Huquqiy me'yorlar va huquqiy ong jamiyatning ijtimoiy tizimlari bilan dialektik aloqada shakllanadi va shu sababli huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy tamoyili, bir tomondan, formal yuridik regulyatsiyani anglatgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, u ijtimoiy munosabatlarning strukturaviy va madaniy kodlari bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, huquqiylik faqat qonunlar doirasidagi tartib emas, balki ijtimoiy strukturadagi adolat, ishtirok, imkonparastlik kabi tushunchalar bilan ham o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy marginalizatsiya va ijtimoiy differensiasiya sharoitida huquqiy tamoyillar jamiyatning pastki qatlamlariga teng darajada ta'sir ko'rsata olmaydi, natijada huquqbuzarliklarning strukturaviy ildizlari chuqurlashadi.

Insonparvarlik tamoyili esa huquqbuzarlikni faqat yuridik-psixologik deviantlik sifatida emas, balki shaxsning sotsializatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va reintegratsiyasi doirasida tushunishga asoslanadi. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik doimiy sotsial-iqtisodiy dinamikalar bilan shakllanib boradi; bu esa o'z navbatida, huquqbuzar subektni "jamiyatdan chetda qolgan" emas, balki institutlararo aloqalarning zaifligi natijasida marginallashgan shaxs sifatida talqin etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy institutlar — xususan, oila, ta'lim, mehnat va madaniyat tizimlari — profilaktik mexanizmlarning asosiy tashuvchilaridir. Ularning funksional holati bevosita ijtimoiy normativlikning saqlanishi yoki buzilishi bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, oila instituti inqirozi, maktab tizimidagi normativ uzilishlar yoki fuqarolik institutlarining zaifligi huquqbuzarlik xavfini kuchaytiradi va insonparvarlik tamoyilining amal qilinishiga to'siq bo'ladi.

Tizimlilik tamoyili esa profilaktik faoliyatni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlari bilan ko'p darajali integratsiyada olib borishni nazarda tutadi. Profilaktikaning samaradorligi uni yakkama-yakka, segmentar yondashuvlarda emas, balki institutsional va strukturaviy sinxronlikda amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Shu boisdan, profilaktik faoliyat faqat ichki ishlar organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi idoralar zimmasiga yuklatilishi emas, balki davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi ko'p tomonlama ijtimoiy kontraktga aylanishi lozim. Bunda profilaktika faoliyati faqat huquqbuzarlik faktining oldini olish bilan emas, balki bu holatlarning sotsial ildizlariga qarshi kompleks chora-tadbirlar tizimini yaratish bilan bog'liqdir.


Differensiallashgan yondashuv esa jamiyat ichidagi guruhlarining madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, huquqbuzarliklar profilaktikasiga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu tamoyil jamiyatdagi turmush tarzi xilma-xilligini e'tirof etish va unga mos preventiv strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Masalan, urban muhitdagi profilaktika chorasi rural kontekstdan farq qiladi; yoshlar uchun samarali bo'lgan metodologiya keksalar uchun noefektiv bo'lishi mumkin. Ijtimoiy segmentatsiyaning chuqurlashuvi sharoitida bir xildagi yondashuvlar universal natija bermaydi, bu esa profilaktik mexanizmlarning kontekstual moslashuvchanligini strategik zaruratga aylantiradi. Nihoyat, ishontirish tamoyili ijtimoiy ongni o'zgartirish orqali huquqiy xatti-harakatlarni rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Bu tamoyil, o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy kommunikatsiyaning kuchli va madaniy jihatdan sezgir bo'lgan vositalariga asoslanadi. Ishontirish — bu rasmiy axborot orqali emas, balki norasmiy sotsiomadaniy maydonlarda, ya'ni diniy, madaniy, etnik va mintaqaviy ijtimoiy kontekstlarda amalga oshiriluvchi jarayondir. U xalq og'zaki ijodi, ommaviy madaniyat, internet

diskurslari orqali faoliyat yuritadi va shaxsiy qadriyatlar bilan huquqiy normativlikni uyg'unlashtiradi. Shu bois ishontirish tamoyilini samarasiz agitasiya yoki formal targ'ibot bilan aralashmaslik lozim; u ijtimoiy legitimlik, axloqiy vakolat va kommunikativ ishonchlikka asoslanadi.

Umuman olganda, huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasi sotsiomadaniy jihatdan kompleks va ko'p qatlamli hodisa bo'lib, u ijtimoiy tuzilmaning statik holati emas, balki uning dinamik rivojlanish traektoriyasida shakllanadi. Bu jarayonda har bir tamoyil o'zaro sinergik aloqada, ijtimoiy institutlararo interaktsiya va turmush tarzining o'zgaruvchan fazilatlar bilan uyg'un holda faoliyat yuritadi. Shu bois, ushbu tamoyillarni izolyatsiyada emas, balki yagona ijtimoiy tizimning integral elementlari sifatida tahlil qilish ijtimoiy-gumanitar bilimlar paradigmasi uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy xulosalarga olib keladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — bu jinoyat sodir bo'lishining oldini olishga qaratilgan murakkab ijtimoiy-huquqiy mexanizm bo'lib, u faqat qonuniy choralar bilan emas, balki insonparvarlik, tizimiy yondashuv, ijtimoiy institutlarning ko'p qatlamli faoliyati va differensial sotsiologik tamoyillar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu soha nafaqat huquqshunoslar, balki sotsiologlar, siyosatshunoslar, pedagoglar va psixologlarning ham o'rganish obekti hisoblanadi. Birinchi navbatda, ijtimoiy tuzilma va institutlar orqali huquqbuzarlikning oldini olishga doir yondashuvlar sotsiologik nazariy asosda tahlil qilinadi. Masalan, Sutherlandning differensial assotsiatsiya nazariyasi asosida jinoyatning shaxs tomonidan jamiyatdagi yaqin muhitda (oila, mahalla, do'stlar guruhi) o'rganilishi ta'kidlanadi. Bu nazariyaga ko'ra, jinoyat — bu shunchaki individuallikning yomonlashuvi emas, balki ijtimoiy munosabatlar natijasidir. Yana bir muhim tamoyil bu — differensiallashgan yondashuvdir. Kunzning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, huquqni muhofaza qiluvchi subektlarning jinoyatchilarga nisbatan sotsial masofa asosida turlicha munosabatda bo'lishi profilaktika jarayonini murakkablashtiradi.

Huquqiy profilaktika doirasida esa ijtimoiy institutlar o'zaro tizimli uyg'unlikda ishlashi lozim. Matskevich profilaktika mexanizmlarining huquqiy asoslari bilan birga, ular orqali jamoatchilikni jalb qilish va texnologik innovatsiyalarni joriy etishni taklif etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy profilaktika — bu “yuqoridan” turib amalga oshiriladigan huquqiy nazorat emas, balki ijtimoiy siyosatning bir bo'lagi sifatida jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan yondashuvdir. Bu jihatdan kriminal siyosat va ijtimoiy siyosat o'rtasidagi integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni umumlashtirgan holda, Eshmurodov huquqbuzarliklarni ijtimoiy xususiyatlarga qarab aniqlash, differensial profilaktika choralari qo'llash zarurligini qayd etadi. U huquqiy madaniyat va savodxonlikni oshirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish g'oyasini ilgari suradi. Mavjud tadqiqotlarda ko'pincha amaliyotdan ajralgan nazariy sxemalarning ustunligi seziladi. Profilaktika masalalarida real ijtimoiy guruhlarning harakatlari, turmush tarzining konkret jihatlari yetarlicha hisobga olinmagan. Harrisning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, hududiy omillar — ayniqsa, qishloq joylaridagi “postkod adolati” — jinoyatchilik profilaktikasida keskin farqlarni yuzaga keltiradi.



Yuqoridagi diagramma huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasining asosiy normativ-tamoyillari – huquqiylik, insonparvarlik, tizimlilik, differensiallashganlik va ishontirish — bo'yicha sotsiologik respondentlar tomonidan bildirilgan baholash darajalarini ko'rsatadi. Ushbu

ko'rsatkichlar sotsiomadaniy kontekstda ushbu tamoyillarning qabul qilinishi va amaliyotdagi samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy tamoyil (82%) — ijtimoiy tartib va javobgarlik mezonlari asosidagi yondashuvlar eng yuqori bahoga sazovor bo'lgan. Bu, aholining huquqiy ong darajasi oshgani va rasmiy institutlarga nisbatan ishonch mustahkamligini ko'rsatadi.

Insonparvarlik tamoyili (76%) — jazolovchi yondashuvdan ko'ra, tushunish va rehabilitatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvning ijtimoiy qabul qilinishi yuqori. Bu, zamonaviy ijtimoiy profilaktikaning humanistik paradigmalari bilan uyg'unligini ifodalaydi.


Tizimli yondashuv (70%) — turli institutlar (maktab, oilaviy muhit, huquqni muhofaza qiluvchilar, NNT) o'rtasidagi hamkorlik zarurati e'tirof etilgan. Bu holat ijtimoiy nazoratning kompleks tusini anglatadi.

Differensiallashgan yondashuv (65%) — yosh, jins, ijtimoiy holat kabi omillarni inobatga oluvchi moslashuvchan profilaktika uslublari hali to'liq ijtimoiy ongda shakllanmagan, biroq sezilarli e'tibor mavjud.

Ishontirish tamoyili (60%) — axborot-kommunikativ vositalar orqali ongga ta'sir qilishning samaradorligi nisbatan pastroq baholangan, bu esa ko'proq amaliy, individual yondashuvga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Sotsiomadaniy tahlil shuni ko'rsatadiki, huquqiy va insonparvarlik tamoyillari ijtimoiy ongda yetakchi o'rin egallagan bo'lsa-da, differensiallashgan va ishontirish yondashuvlarining samaradorligini kuchaytirish zarur.

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi samarali bo'lishi uchun huquqiy, insonparvarlik, tizimli va differensial yondashuvlar sotsiologik strukturalar va turmush tarzi o'ziga xosliklariga tayangan holda tatbiq etilishi lozim. Bu esa mavjud nazariyalarni real jamiyat kontekstida qayta ko'rib chiqish va kompleks profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasini samarali tashkil etish uchun bu to'rtta tamoyilni sotsiologik kontekstda qayta konseptualizatsiya qilish, ularni sotsiomadaniy tizimga real integratsiyalash talab etiladi. Ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzi bir-biridan uzilgan emas, balki bir-birini to'ldiruvchi kompleksdir; bu esa profilaktika siyosatining jamiyatning barcha qatlamlari bilan uyg'unlashishini zarur qiladi.



Yuqoridagi grafikda O'zbekistonda 2019–2023 yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni asosida tuzilgan matematik model – eksponensial regressiya tasvirlangan. Ushbu model ijtimoiy tuzilma (oilalar, maktab, mahalla), ijtimoiy institutlar (qonuniy tizim, huquqni muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari) va turmush tarzi (bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, nazoratsizlik darajasi) kontekstida jinoyatchilikning keskin o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Modeldan ko'rinib turibdiki, jinoyatlar sonining ortishi chiziqli emas, balki eksponensial tus olgan. Bu esa huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasini takomillashtirish zarurligini, ya'ni tizimli, differensial, huquqiy va insonparvar yondashuvlarni ilmiy asoslangan strategiyalar asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Yuqoridagi raqamlar voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoyalashda ijtimoiy tuzilish, institutlar va turmush tarzi omillarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Urbanizatsiya, ta'lim tizimidagi muammolar va oilaviy sharoitlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga bevosita ta'sir

qilmoqda. Shu sababli, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoyalashda kompleks yondashuv, ya'ni ta'lim, oilaviy muhit va ijtimoiy institutlar faoliyatini muvofiqlashtirish zarur.

ADABIYOTLAR.

1. Karimova G. Sotsiologik tafakkur va jinoyatchilik. – Samarqand: Maroqand, 2020. – 148 b. – B. 112.
2. Rasulov I. Jinoyat profilaktikasining sotsiologik aspektlari. – Andijon: Ilm Ziyo, 2021. – 134 b. – B. 74–75.
3. Matskevich, I. (2021). Discrepancy between the Theory and Practice of Crime Prevention. Penitentiary Science.
4. Askamaini, A., et al. (2024). The Relationship Between Criminal Policy and Social Policy. International Journal of Sociology and Law. 5. Harris, B. A. (2020). Social Crime Prevention. In Rural Crime Prevention.

REZYUME:

Mazkur maqolada huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasining huquqiy, insonparvarlik, tizimlilik, differensiallashganlik hamda ishontirish tamoyillari sotsi madaniy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tamoyillarning jamiyat ijtimoiy tuzilishi, ijtimoiy institutlar faoliyati va turmush tarziga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar, ijtimoiy profilaktika, huquqiy tamoyil, insonparvarlik tamoyili, tizimlilik tamoyili, differensiallashganlik tamoyili, ishontirish tamoyili, ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar, turmush tarzi, sotsi madaniy yondashuv.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье с социокультурной точки зрения проанализированы правовые, гуманистические, системные, дифференцированные и убеждающие принципы социальной профилактики правонарушений. Также раскрыто влияние данных принципов на социальную структуру общества, деятельность социальных институтов и образ жизни.

Ключевые слова: правонарушения, социальная профилактика, правовой принцип, принцип гуманизма, принцип системности, принцип дифференцированности, принцип убеждения, социальная структура, социальные институты, образ жизни, социокультурный подход.

RESUME:

This article analyzes, from a sociocultural perspective, the legal, humanitarian, systematic, differentiated, and persuasive principles of the social prevention of offenses. It also reveals the impact of these principles on the social structure of society, the functioning of social institutions, and ways of life.

Keywords: offenses, social prevention, legal principle, principle of humanism, principle of systematicity, principle of differentiation, principle of persuasion, social structure, social institutions, way of life, sociocultural approach.